

O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASHDA INFRATUZILMA ROLINI O'RGANISH

*O'zbekiston Milliy Universiteti Iqtisodiyot fakulteti
magistr 2 kurs talabasi Abdusaxatov Ma'murjon Muratjonovich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda Tadbirkorlik muhitini yaxshilashda Infratuzilma rolini o'rganish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar : Jahon iqtisodiyoti, globallashuv, tadbirkorlik muhiti, infratuzilmani rivojlantirish, kichik biznes, aholi daromadi.

Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlari natijasida yuzaga kelayotgan iqtisodiy-ijtimoiy beqarorlikning salbiy ta'siri kichik biznes hamda ishbilarmonlik muhiti samarali rivojlangan mamlakatlarda nisbatan kuchsiz bo'lmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik muhitini yaxshilashda infratuzilmani rivojlantirish jarayonlari eng ilg'or tajribalarga asoslangan AQSh, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Shveytsariya, Kanada, Norvegiya, Niderlandiya, Gonkong, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa bir qator davlatlarda bu borada ijobjiy holatlar kuzatilgan.

Shuningdek, «jahon tajribasida kichik biznes davlatning ko'magisiz juda sekin rivojlanayotganligi ham barchaga ma'lum». Shunday ekan, jahonning deyarli barcha mamlakatlarida ishbilarmonlik muhitini qulaylashtirish, tadbirkorlarga yaxshi shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda tadbirkorlik muhitini yaxshilashda infratuzilmani rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini oshirishda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanish, kichik biznesning innovatsion g'oyalari va texnologiyalarini amaliyotga joriy etish, yangi ish o'rinalarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasidagi imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish, ishbilarmonlik muhitini kuchaytirishda turli infratuzilma xizmatlarini yo'lga qo'yishning tashkiliy-iqtisodiy masalalarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning tadbirkorlik muhitini yaxshilashda infratuzilmani rivojlantirishga e'tiborning kuchaytirilishi hamda biznes yuritish shart-sharoitlarining tubdan yaxshilanishi natijasida biznes yuritish hamda ishbilarmonlik muhiti bo'yicha xalqaro reytinglardagi o'rni yaxshilanib bormoqda.

«Biznes yuritish» yillik hisobotida mamlakat reytingini yanada yaxshilash bo'yicha «Yo'l xaritasi» tasdiqlanib, unga ko'ra respublikaning mazkur reytingda 20-o'ringa erishishini nazarda tutuvchi «Biznes yuritishni yaxshilash – 2022» maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan dasturiy va maqsadli vazifalar qatorida «...biznes muhitini yanada yaxshilash biz uchun eng muhim masalalardan bo'lib qoladi». O'zbekistonda

ishbilarmonlik muhitini muvofiq tarzda rivojlantirishning zaruriyati uni rag'batlantirishda moslashuvchan va ta'sirchan siyosat yuritishni taqozo etmoqda. Biznes sub'ektlarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari, ularning iqtisodiy faoliyatlarida yuzaga kelayotgan muammolar, ishbilarmonlik muhitining ishlashi bilan aholi iste'molining yangilanib borishi va cheksizligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 iyundagi PF-6003-son «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida», 2019 yil 7 martdag'i PF-5687-son «Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to'g'risida», 2016 yil 5 oktyabrdagi PF-4848-son «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari, 2019 yil 5 fevraldag'i PQ-4160- son «Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishning ilmiy-metodologik jihatlari buyuk iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan. Bular qatorida A.Smit, Y.Shumpeter, J.M.Keyns, R.Xizrich, M.Piters, F.Kotler, P.A.Samuelson, V.D.Nordaus kabi olimlarning nomlarini keltirish mumkin. Shuningdek, N.E.Simionova, A.O.Blinov, M.M.Maksimtsev, V.Ya.Gorfinkel, V.A.Shvandar, Ye.M.Kupryakov, V.S.Kat'kalo, A.Yu.Panibratov, A.N.Dyatlov, N.V.Vasilenko kabi rossiyalik iqtisodchilarning ilmiy asarlarida ishbilarmonlik muhitini tadqiq etishga doir u yoki bu darajadagi mulohazalar o'z aksini topgan. Shu bilan birga, aynan ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish va uni nazariy jihatdan yoritishga doir yondashuvlarni asosan xorijlik iqtisodchilar asarlaridan o'rganish mumkin. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning umumiy jihatlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha S.S.G'ulomov, Yo.A.Abdullaev, M.R.Boltabaev, M.S.Qosimova, Sh.J.Ergashxodjaeva, B.K.G'oyibnazarov, A.N.Samadov, A.A.Xadjimuratov kabilarning ishlarini qayd etish mumkin. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar X.P.Abulqosimov, I.A.Bakieva, Q.Muftaydinovlarning tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Shuningdek, Sh.I.Mustafaqulov tomonidan ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda investitsiya jozibadorligini oshirishga doir masalalar tadqiq etilgan. Shunga qaramay bugungi globallashuv jarayonlarida kichik biznesni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalarini hisobga olish, uni davlat tomonidan tartibga solish va

rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash, shuningdek, kichik biznesni rivojida ishbilarmonlik muhitini qulaylashtirishga yo'naltirilgan masalalar hali to'liq o'rjanilmagan bo'lib, ushbu mavzu doirasida tadqiqot olib borish dolzarbliji namoyon bo'ldi.

Berilgan maqsaddan kelib chiqib, dissertatsiya ishida quyidagi vazifalar belgilandi:

- Tadbirkorlik muxiti hamda infratuzilma tushunchalari va ularning mohiyati asoslarini yoritib berish;
- Tadbirkorlik muhitini yaratishda infratuzilmani rivojlantirishning obektiv sabablarini ochib berish;
- Tadbirkorlik muhitini yaxshilashda infratuzilmani rivojlantirishning ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini aniqlash;
- Tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishning xuquqiy asoslarini yoritib berish;
- Tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishini asoslab berish;
- Tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash.
- Tadbirkorlik infratuzilmasi obektlarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyada iqtisodiy xavfsizlik va innovatsion faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni to'g'risida hayotiy dolzarb masalalarni ta'kidlab o'tdi. Jumladan, "Biz o'zaro bog'liqlik, hamkorlik, muloqot va eng assosiysi, ishonch izchil va barqaror rivojlanish, mintaqalarimiz aholisining turmush darajasi hamda farovonligini oshirishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishiga aminmiz.

Xulosa o'rnida, So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni yengillashtirish va rag'batlantirish maqsadida sohaga oid qator tartibotlar tanqidiy qayta ko'rib chiqilib, eskirgan, zamon talabiga javob bermaydigan byurokratik to'siq va g'ovlar bekor qilindi. Ko'rilgan choralar natijasida respublikada ishbilarmonlik muhiti yaxshilandi, tadbirkorlik subyektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida» 2016 yil 28 oktabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 66-son **qarori**, 2017 yil 9 fevral.
3. G.K.Saidova "Qulay ishbilarmonlik muhiti - tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish garovidir" 9 avgust 2018 y. Toshkent shahar Iqtisodiy taraqqiyot va

kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi rasmiy sayti:
<http://cityeconomy.uz/uz/about/interaktiv/savol-javoblar>.

4. Frederic Meunier, Nadia Novik, Cyriane Coste, Erick Tjong “How did starting a business become easier than ever?”, World Bank Blogs, December 19, 2017. Site: <https://blogs.worldbank.org/developmenttalk>.

